
Xotin-qizlarga huquqiy yordam ko'rsatildi

Bugun Rishton tumani Zoxidon MFYda joylashgan 2-sektorda, "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarga sudlar tomonidan "mahallabay" tizimi asosida o'tkazilayotgan sayyor qabullar orqali huquqiy yordam ko'rsatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida "Ayollar daftari"ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini hal etish tizimini yanada takomillashtirish belgilangan.

Yuqoridagi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida fuqarolak va iqtisodi ishlari bo'yicha «Rishton tumanlararo sudi» raislari Sh.Axunov va U.Ergashevlar tomonidan tumandagi sayyor qabul o'tkazildi.

Sayyor qabul davomida "Zoxidon", "Mevazor", "Yoshlik", "Guliston", "Amirobod", "Polvonobod", "Uch-Ariq", "Markaz" va jami 18 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida yashovchi "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga huquqiy yordamlar ko'rsatildi hamda ularni qiziqtirgan savollarga tegishli tartibda javob berildi.

Sayyor qabulda, shuningdek, Rishton tumani hokimi o'rinbosari - oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i M.Bekmirzaeva va 2-sektor raxbari, tuman prokurori R.Madaliev ham qatnashdi.

2022-07-30 16:31:14